



ҚАЗАҚСТАН ХАЛҚЫ АССАМБЛЕЯСЫ
ҚР ӨЗБЕК ЭТНО-МӘДЕНИ БІРЛЕСТИКТЕРІ “ДУСТЛИК” ҚАУЫМДАСТЫҒЫ
ЖУМАБЕК АХМЕТҰЛЫ ТӘШЕНЕВ АТЫНДАҒЫ УНИВЕРСИТЕТІ
ЎЗБЕКСТАН МЕМЛЕКЕТТІК ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСЫ

А. НАВОЙ АТЫНДАҒЫ ТАШКЕНТ МЕМЛЕКЕТТІК ӨЗБЕК ТІЛІ МЕН ӘДЕБІЕТІ УНИВЕРСИТЕТІ

ҚОЗОҒИСТОН ХАЛҚЫ АССАМБЛЕЯСЫ
ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ЭТНОМАДАНИЙ БИРЛАШМАЛАРИ “ДҮСТЛИК” ҲАМЖАМИЯТИ
ЖУМАБЕК АХМЕТҰЛЫ ТӘШЕНЕВ НОМЛИ УНИВЕРСИТЕТИ
ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСИ
А. НАВОЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ
УНИВЕРСИТЕТИ

KAZAKHSTAN PEOPLE'S ASSEMBLY
SOCIETY OF ETHNO-CULTURAL ASSOCIATIONS OF UZBEKS OF KAZAKHSTAN "DOSTLIC"
ZHUMABEK AHMETULI TASHENEV UNIVERSITY
UZBEKISTAN STATE ACADEMY OF CHOREOGRAPHY
A. TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEKI LANGUAGE AND LITERATURE NAMED NAVOI

«ҒЫЛЫМ-БІЛІМ-ӨНЕР ИНТЕГРАЦИЯСЫ: ПЕРСПЕКТИВАЛЫҚ ЖОБАЛАР»

ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ-ТЕОРИЯЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛДАРЫ
**“ИЛМ-ФАН, ТАЪЛИМ ВА САНЪАТ ИНТЕГРАЦИЯСИ:
ИСТИҚБОЛЛИ РЕЖАЛАР”**

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**“INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND ARTS:
PERSPECTIVE PLANS”**

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONFERENCE

ШЫМКЕНТ, 18.11.2023

**“ҒЫЛЫМ-БІЛІМ-ӨНЕР интеграциясы: перспективалық жобалар”
ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ-ПРАКТИКАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛДАРЫ**



**Жұмабек Тәшенев атындағы университеттің
25 жылдығына арналды
Жумабек Ташенев номли университеттің
25 йиллигига бағишиланады**

**ҚАЗАҚСТАН ХАЛҚЫ АССАМБЛЕЯСЫ
ҚР ӨЗБЕК ЭТНО-МӘДЕНИ БІРЛЕСТІКТЕРІ “ДУСТЛИК” ҚАУЫМДАСТЫҒЫ
ЖҰМАБЕК АХМЕТҰЛЫ ТӘШЕНЕВ АТЫНДАҒЫ УНИВЕРСИТЕТІ
ОЗБЕКСТАН МЕМЛЕКЕТТІК ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСЫ
А. НАВОЙ АТЫНДАҒЫ ТАШКЕНТ МЕМЛЕКЕТТІК ӨЗБЕК ТІЛІ МЕН ӘДЕБІЕТІ
УНИВЕРСИТЕТИ**

**ҚОЗОҒИСТОН ҮЗБЕКЛАРИ ЭТНОМАДАНИЙ БИРЛАШМАЛАРИ “ДҮСТЛИК” ҲАМЖАМИЯТИ
ЖҰМАБЕК АХМЕТҰЛЫ ТАШЕНЕВ НОМЛИ УНИВЕРСИТЕТИ
ҮЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ХОРЕОГРАФИЯ АКАДЕМИЯСЫ
А. НАВОЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ҮЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ
УНИВЕРСИТЕТИ**

**KAZAKHSTAN PEOPLE'S ASSEMBLY
SOCIETY OF ETHNO-CULTURAL ASSOCIATIONS OF UZBEKS OF KAZAKHSTAN "DOSTLIC"
ZHUMABEK AHMETULI TASHENEV UNIVERSITY
UZBEKISTAN STATE ACADEMY OF CHOREOGRAPHY
A. TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEKI LANGUAGE AND LITERATURE NAMED NAVOI**

**«ҒЫЛЫМ-БІЛІМ-ӨНЕР ИНТЕГРАЦИЯСЫ:
ПЕРСПЕКТИВАЛЫҚ ЖОБАЛАР»**

ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ-ТЕОРИЯЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛДАРЫ

**“ИЛМ-ФАН, ТАЪЛИМ ВА САНЪАТ ИНТЕГРАЦИЯСИ:
ИСТИҚБОЛЛИ РЕЖАЛАР”**

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**“INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND ARTS:
PERSPECTIVE PLANS”**

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND THEORETICAL CONFERENCE

ISBN 978-9965-782-91-6



9 789965 782916

ШЫМКЕНТ, 18.11.2023

**“Ғылым-білім-өнер интеграциясы: перспективалық жобалар”
ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ-ПРАКТИКАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛДАРЫ**

УДК 378:001

ББК 74.58

F96

Ұйымдастыру комитетінің төрагасы

**Байболов Қанат Сейтжанұлы - Жұмабек Тәшенев атындағы университет ректоры, техника
ғылымдарының кандидаты, профессор**

Қоғамдық кеңес: И.Хашимжанов, О.Аяшев, М.Хожиматов, Ш.Тохтасимов,
Б.Шермуҳаммадов, Б.Расулов, Ш.Арзымбетова, П.Байнеева, Х.Хамроева, Ш.Наралиева,
Шаменаз Бано, А.Аллајаров.

Редакциялық алқа: Н.Касимов, Г.Матекубова, Р.Сайфуллаева, Ш.Искандарова,
М.Мамажонов, Ж.Ганиев, М.Гафуров, Ё.Сайдов, М.Касимова, Б.Файзуллоев, Р.Шарипов,
С.Түйчиева, Н.Уринова, А.Аккузов, С.Ганиев, А.Улуғов, Ш.Умаров, Н.Кулдашев,
Б.Абдириков, Ж.Ботабаева, Т.Бутунбоева, М.Исламова.

**«Ғылым-білім-өнер интеграциясы: перспективалық жобалар» халықаралық
ғылыми-теориялық конференция материалдары=«Илм-фан, таълим ва санъат
интеграцияси: истиқболли режалар» халқаро илмий-назарий конференция материаллари=**
**«Integration of science, education and arts: perspective plans” materials of the international
scientific and theoretical conference»/жалпы ред.басқарған Ш.Д.Наралиева. – Шымкент:
Жұмабек Тәшенев атындағы университеті, 2023. – 809 б.**

ISBN 978-9965-782- 91-6

Жинақта тіл білімі, әдебиеттану, педагогикалық-әдістемелік мәселелері, өнертану,
тарих, руханияттану, театртану, аударма мәселелері, философия, мәдениеттану, құқықтану,
этнографиялық, халықаралық қатынастар мәселелері бағыттары бойынша мақалалар берілген.

Түпламдан тишинонослик, адабиётшинонослик, педагогик-методик масалалар,
санъатшинонослик, тарих, мағнавиятшинонослик, театршинонослик, таржима масалалари, фалсафа,
маданиятшинонослик, ҳуқуқшинонослик, этнография, халқаро мұносабатлар масалалари
йұналишларига оид мақолалар үрин олган.

The collection contains articles in the areas of linguistics, literary studies, pedagogical and
methodological issues, art studies, history, spirituality, theater studies, translation issues, philosophy,
cultural studies, legal studies, ethnography, international relations issues.

**УДК 378:001
ББК 74.58**

Берілген мақалалардың сапасы мен мазмұнына авторлардың өздері жауапты.

Берилгандын мақолаларнинг савияси ва мазмұни учун мұаллифларнинг ўзлари масъулдир.

ISBN 978-9965-782- 91-6

© Жұмабек Тәшенев атындағы
университеті, 2023

2. Саримсоқов Б. Бадиййлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б. 8. (Sarimsakov B. Fundamentals and criteria of art. - Tashkent, 2004. - P. 8.)
3. Курунов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: “Навоий университети” нашриёти, 2018. – Б. 89. (Kuronov D. Basics of literary theory. - T.: "Navoi University" publishing house, 2018. - P. 89.)
4. Курунов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.:Академнашр, 2010. (Kuronov D. and others. Dictionary of literary studies. - T.: Akademnashr, 2010.)
5. Голсурси Ж. Адабиётда характер яратиш // Жаҳон адиллари адабиёт ҳақида. – Т.:Маънавият, 2010. –Б. 95. (Golsuorsi J. Creating a character in literature // Writers of the world about literature. - T.: Spirituality, 2010. -P. 95.)
6. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative “Saraton” by N. Fozilov. Scientific journal of the Fergana State University, 1(4), 104-105.
7. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY “TWICE TWO IS FIVE”. Journal of Central Asian Social Studies, 2(02), 26-35.

PSIXOLINGVISTIK METODLARDAN NAMUNALAR

Shamsieva Manzura Bababekovna

O‘zbekiston, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), E-mail: vasiya06@mail.ru

Annotation: the article provides general definitions of psycholinguistics as well as examples of psycholinguistic metods that can be used in psycholinguistic research.

Keywords: psycholinguistics, Speech Communication, Speech ability, reasoning completion method, sentence completion method, word annotation method.

Аннотация: мақалада психолингвистиканың жалпы анықтамалары, сондай-ақ психолингвистикалық зерттеулерде қолдануға болатын психолингвистикалық әдістердің мысалдары келтірілген.

Түйінді сөздер: психолингвистика, сөйлеу коммуникатіясы, сөйлеу қабілеті, пайымдауды аяқтау әдісі, сөйлемді аяқтау әдісі, сөздерді түсіндіру әдісі.

Psixolingvistika – nutqiy faoliyatning psixologik va lingistik tomonlarini, nutqiy kommunikatsiya va individual nutqiy tafakkur faoliyati jarayonida tildan foydalanishning ijtimoiy va psixologik omillarini o‘rganadi. Psixolingvistikaning predmeti sifatida, avvalo, inson faoliyatining o‘ziga xos turi sifatida nutqiy faoliyat, uning psixologik mazmuni, strukturasi, namoyon bo‘lish usullari, amalga oshish shakllarini keltirish mumkin. Psixolingvistika maktabi asoschisi A.A.Leontevning ta’kidlashicha, “psixolingvistikaning predmeti nutqiy faoliyatning bir butun va kompleks modelini yaratish qonuniyatini o‘rganish sifatida namoyon bo‘ladi”.

Psixolingvistika dastlab nutq so‘zlovchi va tinglovchi intensiyasi (nutqiy niyat) yoki holatining xabarlar tuzilishiga munosabati, jarayon yoki til tizimi yordamida kodlash mexanizmi (va kodni ochish) sifatida talqin qilingan. Bunda kommunikatsiya ishtirokchilarining “holati” faqat anglash holati sifatida, kommunikatsiya jarayoni esa – bir shaxsdan boshqasiga ba’zi ma’lumotni uzatish jarayoni sifatida tushunilgan.

Keyinchalik ikkihadli (nutqiy qobiliyat- til) emas, uch hadli (nutqiy qobiliyat – nutqiy faoliyat – til) nutqiy faoliyat tizimi g‘oyasi paydo bo‘ldi, chunki nutqiy faoliyat oldindan berilgan mazmuni kodlash yoki kodni ochish jarayoni tarzida emas, balki shu mazmunning shakllanish jarayoni sifatida tushunila boshlandi.

Bir vaqtning o‘zida nutq qobiliyati tushunchasi kengayib, chuqurlashib bordi: u endi nafaqat ong bilan, balki butun inson shaxsi bilan o‘zaro munosabatda bo‘la boshladi. Nutq faoliyatiga nisbatan talqin o‘zgardi: unga muloqot nuqtai nazaridan, muloqotning o‘ziga esa – bir shaxsdan boshqasiga ma’lumot yetkazish sifatida emas, balki jamiyatning (jamoa, ijtimoiy guruh) ichki o‘zini boshqaruvi jarayoni sifatida qaray boshlashdi.

Nafaqat nutq qobiliyati va nutqiy faoliyatning, balki tilning talqini ham o‘zgardi. Agar oldinlari u kodlash va kodni ochish jarayoni sifatida tushunilgan bo‘lsa, endilikda u, birinchi navbatda, shaxsning faoliyati uchun zarur bo‘lgan, uni o‘rab turgan mulkiy va ijtimoiy dunyosi orientir tizimi sifatida talqin qilinmoqda.

Shu tariqa, psixolingvistika predmetiga zamonaviy tavsif berishga harakat qiladigan bo‘lsak, u quyidagicha bo‘ladi. Psixolingvistikaning predmeti, bir tomonidan, shaxsning nutq faoliyati tuzilishi va funksiyasi (vazifasi) bilan, boshqa tomonidan, insonning dunyo obrazi haqidagi tasavvurlarini “hosil qiluvchi” sifatida til bilan o‘zaro munosabati hisoblanadi.¹⁷⁴

Psixolingvistik tadqiqotlarda keng tarqalgan metodlardan biri **mulohazalarni to‘ldirish metodi** hisoblanadi. Bu metod mulohazalarni tugallash, qayta tiklash metodikasi deb ham nomlanadi. Eksperimentni o‘tkazish tartibi quyidagicha bo‘ladi.

Matndagi (nutqiy mulohazada) har bir beshinchi, oltinchi yoki qaysidir o‘rindagi so‘z tushirib qoldiriladi. Har bir so‘z bir xil uzoqlikda tushirib qoldiriladi. Tajriba ishtirokchilariga tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib, matnni qayta tiklash taklif qilinadi.

Eksperimentni o‘tkazish tartibi. Tadqiqotchi har to‘rtta so‘zdan so‘ng tushirilgan so‘zlardan iborat matn namunasini tarqatadi. Tajriba ishtirokchisi tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘yadi va to‘g‘ri to‘ldirilganligini tekshirgandan so‘ng to‘g‘rilik ko‘rsatkichi foizi hisoblanadi. Xulosalar ikki yoqlama xususiyatga ega bo‘ladi.

Bir tomonidan, tajriba ishtirokchilari o‘z intellektual faoliyati ko‘rsatkichlarini, boshqa tomonidan – o‘qilayotgan matnning qiyinlik darajasini baholashadi. Samarali natijalarga erishish uchun tadqiqotda bir emas, ikki va undan ortiq matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Namuna uchun so‘zlari tushirib qoldirilgan matnni keltiramiz:

“Ayni vaqtida jamiyatimizda til _____ oshirish borasida hali ko‘p _____ qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz _____. Ayniqsa, ba‘zan rasmiy muloqotlarda _____ adabiy til qoidalariga _____, faqat ma’lum bir hudud _____ ishlataladigan sheva elementlarini qo‘sib _____ holatlari uchrab turishi bu _____ hali-hanuz dolzarb bo‘lib qolayotganini _____. Bu haqda so‘z yuritganda, _____ Alisher Navoiyning “Tilga e’tiborsiz _____ e’tiborsiz” degan so‘zlarida naqadar _____ hayotiy haqiqat mujassam _____ yana bir bor ishonch _____.¹⁷⁵

To‘g‘ri javoblar: 1 – madaniyatini, 2 – ish, 3 - zarur, 4 – ham, 5 – rioya qilmaslik, 6 – doirasida, 7 – gapirish, 8 – masalalarning, 9 – ko‘rsatadi, 10 – bobomiz, 11 – elga, 12 – chuqur, 13 – ekaniga, 14 – hosil qilamiz. O‘tkazilgan tadqiqotlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, so‘zlari tushirib qoldirilgan matnlarni qayta tiklashning o‘ziga xos

¹⁷⁴ Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. Уч. М., 1997. 287 с.

¹⁷⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: “Маънавият”, 2008. Б. 89

xususiyatlariga tajriba ishtirokchilar o'rtaşıdagı yosh tafovutları ta'sir qiladi. Yoshi katta resipientlar topish qiyin so'zlarni muvaffaqiyatlı va tez tiklaydilar. Fonetik "shovqinli" so'zlar (so'zning ohangiga yaqin so'zlar) yosh resipientlar tomonidan matnsiz ham muvaffaqiyatlı ravishda qayta tiklanadi. Yoshi katta resipientlar shovqinli so'zlarni gap ichida, matnni tushunish asosida yaxshiroq qayta tiklaydilar. Bu esa fonetik munosabatda farqlash qiyin bo'lgan so'zlarni aniqlashda yoshi katta resipientlar uchun matnning mazmunini orientatsiyalash kompensator mexanizmini bajaradi va sensor tizimga muvaffaqiyatlı adaptatsiya bo'lishiga xizmat qiladi deb xulosa chiqarishimizga imkon beradi. Shuningdek, tadqiqotlardan yana shu ma'lum bo'ldiki, buzilgan matnlarda gaplarning boshlang'ich qismlariga qaraganda, oxirgi elementlarini tiklash muvaffaqiyatlı kechadi. Bu esa asosan matnning nomi, uning umumiyyavzusi, tiklanayotgan jumlaning mazmuni, sintaktik tuzilishi va boshqa omillarga qarab aniqlanadi.¹⁷⁶

Tajriba ishtirokchilar matnni tiklashda turli strategiyalardan foydalanishadi, masalan, ba'zilar ko'pincha tushirib qoldirilgan so'zning atrofidagi so'zlar bilan bevosita bog'liq holda aniqlasa, ba'zilar esa kengroq matnga tayanishadi. Boshqa tomonidan esa, buzilgan matnlar kognitiv bilimlar asosida ham muvaffaqiyatlı tarzda tiklanadi.

Psixolingvistik tadqiqotlarning birida resipientlar ilmiy-fantastik mazmundagi matnni muvaffaqiyatlı tarzda tiklashdi, bu resipientlar psixologik ixtisosligi jihatidan ilmiy fantastika mualliflariga o'xshash ekanligi aniqlandi. Shuningdek, erkin assotsiativ eksperimentda kamdan kam uchraydigan, noyob assotsiatsiyalarini belgilagan shaxslar shakli o'zgartirilgan matnni qayta tiklashda jiddiy qiyinchiliklarga uchrashi ma'lum bo'ldi.

Ch.Osgudning ko'rsatishicha, shakli o'zgartirilgan matnni qayta tiklashdagi to'g'rilik darajasi matnning "o'qishlilik" ko'rsatkichi hisoblanadi, ya'ni mazkur ma'lumot muayyan "adresat" tomonidan qay darajada idrok qilinishi va tushunilishi mumkinligini ko'rsatadi. Agar adresat adresantning tilini egallagan bo'lsa, u ma'lumotni tushunishi va tushirib qoldirilgan o'rinnarni to'ldirishi oson kechadi. Agar tushirib qoldirilgan o'rinnarni to'ldirish murakkablik tug'dirsa, bu ma'lumotni to'la holda tushunish qiyin kechadi.

Shu o'rinda bizning tadqiqotlarimiz va Ch.Osgud tadqiqotlari o'rtaşıdagı mutanosibliklarni ta'kidlab o'tish mumkin. Masalan, rusiyabon guruhlarda o'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida bunday matn namunasi tarqatilganda yuqoridagi holatning guvohi bo'ldik.

To'ldirish metodining variantlaridan biri *gaplarni tugallash metodikasi* hisoblanadi. Unda eksperimentator tomonidan boshlangan gaplarni tajriba ishtirokchilar tugallashi (og'zaki yoki yozma tarzda) lozim bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bir xil boshlangan gaplarning oxiri har xil bo'lib tugallanishi mumkin. Gaplarni tugallash bo'yicha eksperimentlar qatnashuvchilarga nutqiy muloqotni sintaktik tashkillashtirishning an'anaviy qoida va mexanizmlarini yaxshi tushunishiga, tilning semantik belgilarini o'rnatishiga yordam beradi.

So'zlarni izohlash metodi

¹⁷⁶. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики: (Модели мира в литературе). - М.: Тривола, 2000. С. 183.

Vekslerning intellekt testidagi “lug‘at subtesti” so‘zlarni bevosita izohlash metodining o‘ziga xos namunasi hisoblanadi. Mazkur subtestda sinaluvchi qator so‘zlarning mazmunini (ularning tavsifini berish) tushuntirishi lozim bo‘ladi. Sinaluvchi javoblarining muvaffaqiyati ta’lim va tafakkur madaniyati, katta lug‘at boyligi, me’yorni yaxshi bilishi hamda so‘z ma’nosini ochishda adekvat yondashuvni taqozo qiladi. Belgilari to‘liq tavsif etilgan javob yuqori baholanadi – 2 ball, aniqroq javoblar pastroq ball bilan – 1, tasodifiy va sub’ektiv belgilar nol ko‘rsatkich bilan baholanadi.

Masalan, “nonushta” so‘zining tavsifi quyidagicha belgilanadi: “ertalabki ozuqa, ertalabki tamaddi” – 2 ball, “ozuqa, nimadir yeyiladi” – 1, “kofe, buterbrod” – 0 ball. Subtest bo‘yicha jami ballar yig‘indisi hisoblanadi va shu asosda eksperimentator yosh me’yorlari bo‘yicha individual ma’lumotlar muvofiqligi haqida xulosalarini chiqaradi. A.P.Vasilevich (1981) va R.M.Frumkinlar (1980) tomonidan o‘tkazilgan qator eksperimentlarda so‘zning ichki tuzilishi til ongida (lisonda) qay darajada ifodlanashini ko‘rsatishga urinishdi¹⁷⁷. Buning uchun sinaluvchilardan eng oddiy so‘zlarga og‘zaki tavsif berish so‘raldi.

Agar bu tavsiflarda izohlanayotgan so‘zning o‘zagi ishtirok etsa, ichki tuzilish so‘zning semantik interpretatsiya jarayonida o‘z ta’sirini saqlab qolishi taxmin qilingan. Mazkur metod til sohiblari izohlanayotgan so‘zning ichki tuzilishini tushunishining muhimlilik darajasini aniqlashda ham qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, bu metod yordamida “idiomatizatsiya” (ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmasan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi ixcham ibora).koeffitsientlarini o‘lchash mumkin. O‘lchov natijalari til sohiblarining ongidagi u yoki bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi hamda ichki shakli munosabatining real manzarasini aks ettiradi.

Eshitish diqqati xususiyatlarini baholash (“Chalkashtirilgan ko‘rsatmalar”) metodikasi

Eshitish diqqati – qabul qilishning eng qimmatli, shu bilan birga, juda nozik komponentidir. Diqqatning turli jihatlari – uning hajmi, turg‘unligi, o‘zgaruvchanligi, interferensiyasi – samarali qabul qilishning integratsiyasi natijasida namoyon bo‘ladi.

Agar qabul qiluvchi (auditor)ning, diqqati barqaror bo‘lmasa, masalan, yosh bolada, rigid tafakkurli yoki zaif asab tizimli odamlarda o‘zgaruvchanlikning sustligi kuzatiladi. Emotsional barqaror bo‘lmasan odamlarda yuqori interferensiyalik bo‘lgan holatlarda nutqni qabul qilishda muammolar kuzatiladi. “Chalkashtirilgan ko‘rsatma” metodikasi topshiriqlarni to‘g‘ri bajarish natijalari orqali diqqat xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Tajriba ishtirokchilarining vazifasi shundan iboratki, ular og‘zaki ko‘rsatmalarni diqqat bilan eshitishi va shu asosda harakatlarini amalga oshirish lozim bo‘ladi. Ularga ko‘rsatmaga mos matn tarqatiladi.

Og‘zaki ko‘rsatmalar ro‘yxati. 1. Agar F harfi bir marta bo‘lsa ham vergul oldida uchrasa, uni yozib qo‘ying, boshqa hollarda Farishta so‘zidagi “f” harfi tagiga chizib qo‘ying. 2. Agar “so‘z” birligi yangi leksema hosil qilishda ishtirok etmagan bo‘lsa, to‘lqinli chiziq chizing, aks holda krest belgisini qo‘ying. 3. Agar A harfi alifboda 1-

¹⁷⁷ Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики: (Модели мира в литературе). - М.: Тривола, 2000. – 218-220 б.

tartib raqamida turgan bo'lsa, unda G va D harflarining tartib raqamlari yig'indisini yozing. 4. Agar "makroekonomika" so'zi barcha unlilarni qamrab olmagan bo'lsa, uni yozmang, balki alifbodagi birinchi to'rtta undoshni yozing. 5. Agar aylana alifbodagi hech bir harfga o'xshamasligi noto'g'ri bo'lsa, "farishta" so'zini aylanaga oling. 6. Agar "V harfi alifbodagi uchinchi harf emas" degan yolg'onga qo'shilmasangiz, bu yerga kvadrat chizing. 7. 10 dan 5 gacha sanang va hisobni teskari tartibda yozing. 8. Agar ko'rshapalak hayvon emas, balki qush bo'lsa, koptok rasmini chizmang. 9. Agar O'zbekistondagi eng katta daryo Amudaryo bo'lmasa, bu yerga "Zarafshon" so'zini yozing, boshqa holda bu yerga "botqoq" so'zini yozing. 10. Mazkur gapdagı ikkinchi so'zning ustiga bir chiziq chizing.

To'g'ri javoblar. 1) "F harfi" birinchi qatorda chizilgan. 2) Krest chizilgan. 3) 9. 4) B, V, G, D. 5) "Farishta" so'zi doiraga olingan. 6) Kvadrat chizilgan bo'lishi lozim. 7) 5, 6, 7, 8, 9, 10. 8) Koptok chizilgan. 9) "botqoq" so'zi yozilgan bo'lishi lozim. 10) Ikkinchida turgan "Chiziq" so'zining ustiga chiziq chizilgan.

Natijalar talqinida barcha to'g'ri bajarilgan ko'rsatmalar umumiyligi miqdori ballarda hisoblanadi. Ko'rsatkich 5 va undan yuqori bo'lganda qoniqarli hisoblanadi, 5 balldan kam va umuman topshiriqlarni bajarishdan bosh tortish qoniqarsiz tarzda baholanadi, bu eshitish diqqatida nuqsoni borligidan dalolat beradi.¹⁷⁸

Sub'ektiv shkalalash metodlari

Sub'ektiv shkalalash metodlari eksperimentator tomonidan taklif qilingan belgining ifodalanganlik nuqtai nazaridan biron-bir hodisa (tushuncha, so'z)ning bahosini ballarda ko'rsatib beradi.

Shkalalash protsedurasi belgilangan qoidalar asosida shkalalarni tuzishni o'z ichiga oladi va u ikki bosqichdan tashkil topadi.

Birinchi bosqichda ma'lumotlar yig'iladi. Tadqiq qilinayotgan ob'ektlarning namoyon bo'lish empirik tizimi yaratiladi va ular o'rtasidagi munosabat turlari qayd qilinadi.

Ikkinci bosqichda ma'lumotlar tahlili o'tkaziladi. Natijalar tahlili bilan bog'liq ravishda shkalaning asosini tashkil etuvchi raqamli tizim shakllantiriladi (Burlarchuk L.F., Morozov S.M., 1999, s .382). Masalan, shkala quyidagicha belgining namoyon bo'lish gradatsiyalariga ega bo'lishi mumkin: 1 – namoyon bo'lmaydi, 2 – sust namoyon bo'ladi, 3 – o'rtacha, 4 yuqori, 5 o'ta yuqori.

So'ng resipientlar tadqiq etilayotgan hodisani qayd etilgan mezonlar asosida baholab o'zining sub'ektiv munosabatini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur metodikani matnning emotsiyalini aniqlash bo'yicha fonosemantik tahlilda ham qo'llash mumkin. Ba'zan 100-shkalali yoki bir necha belgilar asosidagi murakkablashtirilgan modifikatsiyalari ham qo'llanadi (Belousov K.I., Blaznova N.A., 2005, b.47-48).

Semantik differensial metodikasi

Mazkur metodika mohiyati quyidagi protsedurada namoyon bo'ladi (BurlarchukL.F., Morozov S.M., 1999, 229-302). So'z, tushuncha yoki ramz sifatida namoyon bo'luvchi tadqiq qilinayotgan ob'ekt (stimul)ni qayd etilgan shkalaga muvofiq tarzda taklif etilgan qarama-qarshi belgilar (ko'pincha sifatlar bilan)ga asoslanib, verbal yoki noverbal tarzda baholaydi.

¹⁷⁸. В.Н.Денисенко, Е.Ю.Чеботарева. Современные психолингвистические методы анализа речевой коммуникации: Учеб. пособие. – М.: РУДН, 2008. С. 160.

Qarama-qarshi ma'nolar o'rtasidagi shkalalar resipientlar tomonidan ma'nolar ifodalanishining nol nuqtasidan bir belgi yoki unga qarama-qarshi bo'lgan belgining turli darajasigacha uzlusiz gradatsiya kontinuumi sifatida qabul qilinadi. Shu tariqa, semantik differensial yo'naltirilgan assotsiatsiya va shkalalash protsedurasi metodlarining birlashuvi hisoblanadi.

Har bir shkalada +3da -3gacha yoki oddiy 7 ta bo'linish gradatsiyasi kiritilgan, masalan:

- 1 yaxshi
- 2 neytraldan ko'ra yaxshiroq
- 3 yaxshidan ko'ra neytralroq
- 4 neytral
- 5 yomondan ko'ra neytral
- 6 neytraldan ko'ra yomonroq
- 7 yomon

Shkalaning bo'linishini raqamli tarzda ifodalash quyidagi tarzda namoyon bo'ladi. Belgining ikki qarama-qarshi ma'nosidan (masalan, "yomon") birini x , ikkinchisini ("yaxshi") – u deb belgilasak, shkalaning bo'linishi quyidagicha talqin qilinadi: -3 – yuqori ifodalangan x ; -2 – ifodalangan x ; -1 – biroz sezilarli x ; 0 – x ham u ham emas (yoki x ham u ham bir xil darajada); 1 – biroz sezilarli u , 2 – ifodalangan u , 3 yuqori ifodalangan u .

Shu tariqa, tushunchaning ma'nosini semantik differensial shkalasida baholash uni semantik makonning nuqtasiga o'rnatish imkonini beradi. Nuqtaning joylashuvi ikki asosiy ko'rsatkich bilan asoslanadi: koordinataning boshlanishidan shkalaning neytral pozitsiyasiga tomon yo'nalgalik (sifatli tavsif, belgilar polyarizatsiyasi (qutblashish)) va koordinataning boshlanishidan uzoqlashish (miqdoriy tavsif, intensivlik, (jadallik)). Nuqtaning neytral pozitsiyadan uzoqlashish vektori qanchalik uzun bo'lsa, reaksiya shunchalik intensiv bo'ladi va resipient uchun baholanayotgan tushuncha shunchalik ahamiyatga ega bo'ladi.

Semantik differensial protsedurasi asosida olingan miqdoriy ma'lumotlar tadqiq qilinayotgan tushuncha (stimul)ning semantik profili ko'rinishida namoyon bo'ladi – resipient tomonidan shkalada belgilangan nuqtalarni birlashtiruvchi siniq chiziq. Semantik profil kompleksi baholanayotgan tushunchaning o'ziga xos jihatlarini tavsiflaydi. Stimul ifodasining aniqligi semantik makondagi o'qlar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Biroq amaliyotda uning asosiy o'lchovlarini bilish kifoya qiladi. Semantik makondagi o'lchov (shkala)larning minimal miqdorini aniqlash uchun faktorli tahlil qo'llanadi. Bu faktorlar bir shkala yoki shkalalar guruhi bilan ifodalanishi mumkin (masalan, Ch.Osgud tomonidan ajratilgan uch faktor)

Faktorli omillarning majmui shunga o'xshash hodisani sub'ektiv idrok qilish yoki muayyan resipient yoki guruh ob'ektlari o'rtasidagi farq haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bunday o'xshashlik darjasasi yoki farqlarini miqdoriy tasavvur qilish mumkin: $D(x,y)=\sqrt{\sum d(x_i,y_i)^2}$, qayerda bo'lsa $D(x,y)$ - x va u ob'ektlari o'rtasidagi semantik masofa; x_i, y_i faktor bo'yicha x va u ob'ektlari ma'nosini ifodalovchi ikki nuqta koordinatalari orasidagi farq.

Shuningdek, semantik differensial metodi sinaluvchilarning o'z-o'zini baholashi tadqiqida ham qo'llanishi mumkin. Sub'ekt "Men" obrazining turli jihatlarini, o'zining

turli shaxsiy sifatlari ifodalanganligi to‘g‘risidagi tasavvurlari, “barkamol Men” va “nomaqbul Men” obrazlari tuzilishini ham baholash mumkin.

Foydalanaligant adabiyotlar ro‘yxati:

1. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики: (Модели мира в литературе). - М.: Тривола, 2000. – 218-220 б.
2. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. Уч. М., 1997. 287 с.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: “Маънавият”, 2008. Б. 89
4. Прохоров Ю.Е., Денисенко В.Н., Чеботарева Е.Ю. Современные психолингвистические методы анализа речевой коммуникации: Учеб. пособие. – М.: РУДН, 2008. – 258 с.

ЎРТА МАХСУС БЎГИНДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИ

**Юсупова Турсуной Ахмедовна,
Алишер Навоий номидаги Тошдўтау доценти,
педагогика фанлари номзоди tursunov05@mail.ru**

Аннотация. Мақолада ўрта махсус таълимда ўқувчиларга она тили қандай ўқитилиши кераклиги таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: ўрта махсус бўғин, она тили таълими, она тили таълими мақсади, касбий ижодий тафаккурни ривожлантириш

Аннотация. В статье анализируется, как обучать студентов на родном языке в профессиональных школах.

Ключевые слова: профессиональный школа, обучение родному языку, цель обучения родному языку, развитие профессионального творческого мышления

Annotation. The article analyzes how to teach students in their native language at professional schools.

Key words: professional school, teaching the mother tongue, the goal of teaching the mother tongue, the development of professional creative thinking

Ўқувчиларнинг билиш фаолияти динамика тарзда ривожланишини биламиз. Буни ҳисобга олган ҳолда белгиланган таълимнинг умумий ва муайян ўқув предметларига хос хусусий мақсадлари ўзаро муштараклиқда таълим мазмунида намоён бўлиши зарур. Таълим мазмунининг таълим мақсадига мувофиқ бўлишини таъминловчи муҳим шартларидан бири шундаки, таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фаолият кўрсатишга, эркин фикрлашга ундовчи ўқув машғулотлари тизими, таълим жараёнидаги ҳар бир предмет, ҳар бир турдаги фаолият, ҳар бир дарс ва муайян дарсда ўқувчи бажариши учун мўлжалланган ўқув топшириклари жамланмаси, барча-барчаси, яъни бутун таълим тизими бош мақсадни амалга оширишга, ақлий, мантиқий фаолиятга киришиш вазифасини қўйишга, амалга оширишга хизмат қилмоғи керак.

Ўқувчи келажақда муносиб ўрин эгаллашга интилаётган жамиятнинг сиёсий, иқтисодий, маънавий, маданий, маърифий ҳаёти, халқ турмуш тарзи, рухиятини ҳам таълим мазмуни ўзида акс эттира олгандағина тўлақонли бўлади. Чунки худди мана шу халқнинг турмуш тарзи ва жамият ҳаётида ўқувчи

МАЗМУНЫ/МУНДАРИЖА

№			
1.	Байболов Қанат Сейітжанұлы	Құттықтау сөз	4
2.	Шұхрат Тохтасимов	Құттықтау сөз	6
3.	Минһожиддин Хожиматов	МИРТЕМИР ШЕҮРИЯТИДА МИЛЛИЙ ҮЗЛИК ТУЙГУСИ ПОЭТИК ОБРАЗ СИФАТИДА	19
4.	Шұхрат Тохтасимов	ЎЗБЕК БОЛАЛАР ФОЛЬКЛОР РАҚС САНЪАТИНИНГ ТАРИХИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ	22
5.	Гавҳар Матёқубова	“ЛАЗГИ” – ХОРАЗМ ДУРДОНАСИ	27
6.	Раъно Сайфуллаева	ЖАДИД ОЛИМЛАРИ АСАРЛАРИДА ОИЛА, АЁЛ МАҢНАВИЯТИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	31
7.	Нозим Қосимов	МИЛЛИЙ МУСИҚА ТАРИХИННИГ ИЛМИЙ - НАЗАРИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ	38
8.	Мирмуҳсин Гапуров	МУСИҚА ДАРСЛАРИДА МАДАНИЙ МЕРОСГА ҲУРМАТ ТУЙГУСИНИ ШАКЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ	42
9.	Жаҳонгир Ғаниев	ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИКНИНГ ИЖТИМОЙ - СИЁСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	44
10.	Хулкар Ҳамроева	ЎЗБЕКИСТОН ҲАЛҚ АРТИСТИ, ПРОФЕССОР ГАВҲАР МАТЕЁҚУБОВА ПОРТРЕТИГА ЧИЗГИЛАР	47
11.	Мустафа ДЕМИРЧИ Шахло Наралиева	CREATIVE THOUGHT AND CRITICISM IN EDUCATION ACCORDING TO IBN KHALDUN	53
12.	Нариман Жұмашұлы Нұрпейісов	ПРОФЕССОР МЕКЕМТАС МЫРЗАХМЕТОВ ЖӘНЕ АБАЙТАНУ ҒЫЛЫМЫ	59
13.	Байболова Айжан Арынбаева Рана Хулкар Ҳамроева	РАУФ ПАРФИ ШЕҮРИЯТИДА	64
14.	Шахло Наралиева	ТАРИХ ВА ТАФАККУР ТАЛҚИНИ	
15.	Салимжон Ғаниев	(Қозғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактаблари мисолида)	
16.	O'rnova Nilufar	TYUTORLIK FAOLIYATINING O'ZIGA XOS JIXATLARI	71
17.	Мухаммаджон Мамажонов	МАТН ИДРОКИ ВА ТАЛҚИНИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	75
18.	Низомиддин Қўлдашев Шахло Наралиева	(Анвар Обиджоннинг “Мангуберди фалсафаси” шеъри мисолида)	
19.	Шовкат Умаров	НОАНЬАНАВИЙ ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИДА УЗВИЙЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ	79
20.	Ниязметова Роза	ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ЧОЛҒУЛАРИ ТАСНИФИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	83
21.	Қосимов Абдуғафур	ЛИТЕРАТУРНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ УЗБЕКСКОЙ И КАЗАХСКОЙ ДРУЖБЫ ФАРГОНА АДАБИЁТШУНОСЛИК МАКТАБИ: КЕЧА ВА БУГУН	87
			92

“Ғылым-білім-өнер интеграциясы: перспективалық жобалар”

ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ-ПРАКТИКАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛДАРЫ

79.	Shamsieva Manzura	PSIXOLINGVISTIK METODLARDAN NAMUNALAR	349
80.	Юсупова Турсуной	ҮРТА МАХСУС БҮФИНДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИ	355
81.	Маҳфузулло Раҳмонов	АЛИШЕР НАВОЙЙ КУЛГИ ОДОБИ ҲАҚИДА	361
82.	Saydaxmedova Nigora Ismoilova Munira	NAMANGAN VILOYATI FOLKLORIDA BOLALAR QO'SHIQLARIGA XOS XUSUSIYATLAR	364
83.	Abdurahmanov Shavkatjon	DAVLAT TILI (O'ZBEK TILI) MUAMMOLARI YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR (O'ZBEKİSTON)	366
84.	Saydaxmedova Nigora Zokirova Mohidil	SO'Z GUHARIGA ERUR ONCHA SHARAF	369
85.	Рустамова Ибодатхон	ДРАМАДА ҚАҲРАМОН СПЕЦИФИКАСИ HERO SPECIFICS IN DRAMA ДРАМАДАҒЫ КЕЙІПКЕРДІҢ ЕРЕКШЕЛІГІ	372
86.	Qazaqova Nozima	O'XSHATISH PRAGMATIK VOSITA SIFATIDA	375
87.	Абдурахмонов Абилжон	НУР МАНБАЛАРИНИНГ РАУФ ПАРФИ ЛИРИК ОЛАМИДАГИ ИФОДАСИ	380
88.	Орипова Гулноза Мирзажонова Гулбаҳор	ТАРИХИЙ РОМАНЛАРДА ПОРТРЕТНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК ФУНКЦИЯСИ	385
89.	Ходжаев Сидик	Х.ДҮСТМУҲАММАДНИНГ “БОЗОР” РОМАНИДА УЧЛИК ТИМСОЛИНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯСИ	388
90.	Ahmedova Nargiza	O'ZBEK TILIDA VATAN KONSEPTINING IFODALANISHI ОТАН ТҮСІНІГІН ӨЗБЕК ТІЛІНДЕ БЕРУ EXPRESSION OF THE MOTHERLAND CONCEPT IN THE UZBEKI LANGUAGE	391
91.	Курбанова Бахтихон	РОЛЬ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ	395
92.	Исамитдинов Жорабек	К ИСТОРИИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И СОБЛЮДЕНИЯ ОБРЯДОВ ДРЕВНЕЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОГО КАЛЕНДАРНОГО ПРАЗДНИКА МЕХРГОН OROL DENGIZI FOJEASI	402
93.	Raximova Gulchexra <u>Oxunov Javlon</u> <u>Abdullahayev Mirzo</u> <u>Yoqubova Komila</u> <u>Rustamov Shuxratjon</u> <u>Avazov Muxammadqodir</u>		406
94.	Ganiyeva Shodiya	TILSHUNOSLIKDA FRAZEОLOGIK KONTAMINATSIYA TADQIQI MASALASI	411
95.	Розикова Гулбаҳор	“ДЕВОНУ ЛУҒОТИТ ТУРК” АСАРИДА АНТОНИМЛАР ОРҚАЛИ ЗИДЛИК МУНОСАБАТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ PIKTOGRAMMA VA RAMZLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA TA'SIRLARI	414
96.	Quraqova Shoxida		418